Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317905

amalga oshirishda, moliyaviy monitoring va nazoratni olib borishda hamda ijro hukumatining moliyaviy resurslarini boshqarishda qatnashadilar.

Xulosa qilib aytganda, moliya tizimi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi hamda ko'plab investitsiyalar kiritish uchun zarur imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish moliya sohasini global miqyosda rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash esa, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik qilish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kabi masalalarni yechimini topishda samara beradi, natijada jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маликов Т.С. Молия: амалий жиҳатлар (2-қисм). Ўқув қўлланма. Тошкент – «Nihol print» ОК – 2022. 364 bet.
2. *Hahn Christopher. Finanzierung von Start-up-Unternehmen. Praxisbuch für erfolgreiche Gründer: Finanzierung, Besteuerung, Investor Relations. Herausgeber.trustberg LLP. Berlin, Deutschland.Berlin im Sommer 2018.-304 S.*
3. *Аташиёзов Ж.Ҳ. – Ўзбекистонда интеграциялашган тузилмаларни шакллантиришнинг истиқболли йўналишлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 1, февраль, 2018 йил. 5-20 б.*
4. *Шоҳаъзамий Ш.Ш. Тизимли молия ижиниринги. Монография. –Т.: Фан ва технология, 2012.-796 б.*
5. *Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71.*

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI TASHKIL QILISH VA ULARNING TAHLILI (ANDIJON MEXANIKA JAVODI AJ MISOLIDA)

Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
alijonovergashboy787@gmail.com

Published: 24.05.2025

Cite this article: Alijonov Ergashboy Ilhomjon o‘g‘li (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralarning hisobini tashkil qilish va ularning tahlili (Andijon mexanika javodi AJ misolida). Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317905

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralarining hisobini tashkil qilish va ularni samarali boshqarishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tovar-moddiy zaxiralari korxonalarning muhim qisqa muddatli aktivlari sifatida ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot tannarxi va moliyaviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada tovar-moddiy zaxiralari hisobining yuritilish tartibi, baholash usullari va buxgalteriya amaliyotidagi mavjud muammolar nazariy va amaliy asosda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarini boshqarishni takomillashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir tavsiyalar beriladi. Tahlil davomida ilmiy-uslubiy yondashuvlar va dolzarb statistik ma’lumotlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: tovar-moddiy zaxiralari, aksiyadorlik jamiyati, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, FIFO, LIFO, baholash usullari, moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish xarajatlari.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕТА И АНАЛИЗ ТОВАРНО-МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАПАСОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ (НА ПРИМЕРЕ АО «АНДИЙОН МЕХАНИКА ЗАВОД»)

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая значимость организации учета и эффективного управления товарно-материальными запасами в акционерных обществах. Товарно-материальные запасы рассматриваются как важные краткосрочные активы предприятий, которые непосредственно влияют на производственный процесс, себестоимость продукции и финансовую устойчивость. В статье рассматриваются порядок ведения учета товарно-материальных запасов, методы их оценки и существующие проблемы в бухгалтерской практике на теоретическом и практическом уровнях. Также даны рекомендации по повышению конкурентоспособности акционерных обществ через совершенствование управления товарно-материальными запасами. В процессе анализа использованы научно-методологические подходы и актуальные статистические данные.

Ключевые слова: товарно-материальные запасы, акционерное общество, бухгалтерский учет, экономический анализ, FIFO, LIFO, методы оценки, финансовая устойчивость, производственные издержки.

ORGANIZATION OF ACCOUNTING AND ANALYSIS OF INVENTORIES IN JOINT-STOCK COMPANIES (CASE STUDY OF ANDIJAN MECHANICAL PLANT JSC)

Abstract: This article analyzes the economic importance of organizing accounting and efficient management of inventories in joint-stock companies. Inventories are

considered important short-term assets that directly impact the production process, product cost, and financial stability. The article reviews the procedures for inventory accounting, valuation methods, and existing problems in accounting practice from both theoretical and practical perspectives. Recommendations are also provided to enhance the competitiveness of joint-stock companies by improving inventory management. The analysis utilizes scientific-methodological approaches and relevant statistical data.
Keywords: inventories, joint-stock company, accounting, economic analysis, FIFO, LIFO, valuation methods, financial stability, production costs.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq. Bu resurslar ichida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) muhim o‘rinni egallaydi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, tayyor mahsulotlar yetkazib berishda uzluksizlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida TMZ hajmi umumiy aktivlar tarkibida salmoqli ulushni egallaydi, ularning harakatini hisobga olish, baholash va tahlil qilish esa korxonaning moliyaviy barqarorligi va foydadorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tovar-moddiy zaxiralarning narxini aniqlash, ularni hisobga olishda qo‘llaniladigan baholash usuli, korxona foydasining aniqlanishi, soliqqa tortish bazasi va moliyaviy natijalarning ishonchliligi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, TMZni baholashning turli usullarini chuqur o‘rganish, ularning iqtisodiy natijalarga ta’sirini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi**.**

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Andijon Mexanika Zavodi (AMZ) – “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli sho‘ba korxona bo‘lib, temir yo‘l transporti uchun vagonlar va ularning tarkibiy qismlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Zavod faoliyati mamlakat temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi sanoat tarmog‘ining ajralmas qismidir. Zavodda ishlab chiqarish jarayonlarining samarali boshqaruvi va zaxiralarning hisobga olinishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, FIFO (First In – First Out) — ya’ni "birinchi kirgan – birinchi chiqadi" tamoyiliga asoslangan usul, korxonada tovar-moddiy zaxiralarni baholashda va moliyaviy natijalarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu usul xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) mos keladi va O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi qonunchiligida ham tan olingan.

Zavod temir yo‘l transporti uchun maxsus texnik jihozlar, ehtiyot qismlar ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan. Uning ishlab chiqarish yo‘nalishlari quyidagi asosiy segmentlarni qamrab oladi:

• Vagon qismlari ishlab chiqarish: Yuk va yo‘lovchi vagonlari uchun tormoz tizimlari, g‘ildirak juftlari va boshqa texnik komponentlar tayyorlanadi.

• Poyezd ehtiyot qismlari: Lokomotivlar uchun mexanik va elektrotexnik qismlar ishlab chiqiladi.

• Ta’mirlash xizmatlari: Vagonlar hamda poyezd qismlarining kapital ta’miri amalga oshiriladi.

Zavod ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli boshqaruv tizimiga ega CNC stanoklaridan foydalanadi. Korxonada ISO 9001 xalqaro sifat menejmenti standartlariga mos tizim joriy etilgan bo‘lib, bu mahsulotlar sifatining yuqoriligi va barqarorligini ta’minlaydi. AMZda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nafaqat ichki bozor – O‘zbekiston temir yo‘llari tizimi, balki MDH davlatlari bozorida ham keng qo‘llaniladi.

Zavoddagi ishlab chiqarish jarayonlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tovar-moddiy zaxiralarni to‘g‘ri boshqarish hisoblanadi. Bu jarayonda FIFO (First In – First Out) usulining qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur usulning nazariy asoslariga ko‘ra, omborga birinchi bo‘lib kirgan zaxiralar birinchi navbatda ishlab chiqarishda yoki sotuvda foydalaniladi. Bu tamoyil ishlab chiqarishning mantiqiy ketma-ketligiga mos keladi va ayniqsa inflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobotlarda real ko‘rsatkichlarni ta’minlashga xizmat qiladi. FIFO usuli hisob-kitoblarda narxlari past bo‘lgan avvalgi zaxiralarning birinchi bo‘lib chiqarilishini nazarda tutadi. Bu holat, yuqori narxlardagi oxirgi zaxiralar omborda qolishini anglatadi, natijada foyda miqdori ko‘proq bo‘lishi mumkin. Mazkur usul “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (2020-yilgi tahriri)[1] talablariga va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS doirasidagi IAS 2 (Inventories – Zaxiralar) standartiga mos keladi. FIFO usulining nazariy asoslari amaliyotda hisobning shaffofligi, moliyaviy ko‘rsatkichlarning aniqligi hamda boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Shu bois, bu yondashuv AMZ kabi ishlab chiqarish faoliyati keng ko‘lamda olib boriladigan korxonalar uchun iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi.

FIFO usulini tanlashda asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur usulning qo‘llanishi quyidagi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

• Xom ashyo zaxiralarini boshqarish. Zavod tomonidan sotib olinadigan po‘lat, alyuminiy va boshqa metall materiallar birinchi bo‘lib kelgan partiyalar asosida ishlab

chiqarish jarayonlariga yo‘naltiriladi. Bu esa ombordagi materiallarning eskirmasdan o‘z vaqtida ishlatilishini ta’minlaydi.

• Tayyor mahsulotlarning aylanmasi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususan, vagon qismlari va poyezd ehtiyot qismlarining birinchi tayyor bo‘lgan partiyalari birinchi bo‘lib sotuvga chiqariladi yoki ta’mirlash ishlarida foydalaniladi. Bu mahsulotlarning sifat va ishonchlilik darajasini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

• Omborxona jarayonlarini optimallashtirish. FIFO tamoyili korxona omborlarida materiallarning tartib bilan harakatlanishini ta’minlab, korroziyaga uchrashi mumkin bo‘lgan mahsulotlar (masalan, po‘lat)ning yaroqlilik muddatida foydalanilishiga zamin yaratadi.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatining TMZni hisobga olishning FIFO usuli (2024–2025)[2]

Sana	Kirim/Chiqim	Miqdor (tonna)	Narx (mln so'm/tonna)	Jami qiymat (mln so'm)	Qoldiq zaxira (tonna)	Qoldiq qiymat (mln so'm)
01.01.2024	Kirim	100	5	500	100	500
01.07.2024	Kirim	50	5,5	275	150	775
01.01.2025	Kirim	100	6	600	250	1375
01.03.2025	Chiqim (ishlab chiqarish)	120		620	130	755
01.06.2025	Chiqim (ishlab chiqarish)	80		450	50	300

2024-yilning 1-yanvarida zavod 100 tonna po‘latni tonnasi 5 million so‘mdan sotib oldi. Bu kirim jami 500 million so‘mni tashkil etdi va zaxira miqdori 100 tonna, qiymati esa 500 million so‘mga teng bo‘ldi. 2024-yil 1-iyulda qo‘shimcha 50 tonna po‘lat 5,5 million so‘mdan sotib olindi. Bu harakat bilan zaxira 150 tonnaga yetdi, umumiy qiymati esa 775 million so‘mga oshdi. 2025-yil 1-yanvarda yana 100 tonna po‘lat kirib, uning narxi 6 million so‘mdan baholandi. Shu bilan zaxira miqdori 250 tonnaga, qiymati esa 1375 million so‘mga yetdi. 2025-yil 1-martda ishlab chiqarish uchun 120 tonna po‘lat sarflandi. FIFO qoidalariga muvofiq, birinchi bo‘lib 100 tonna po‘lat 5 million so‘mdan (500 million so‘m) ishlatildi, qolgan 20 tonnasi esa 5,5 million so‘mdan (110 million so‘m) hisobga olindi. Shu tariqa, ushbu chiqim tannarxi jami 620 million so‘mni tashkil etdi. Chiqimdan so‘ng zaxira miqdori 130 tonnaga kamayib, uning qiymati 755 million so‘mga tushdi. Qolgan zaxiraning narxi esa 5,5 va 6 million so‘m oralig‘ida baholandi. 2025-yil 1-iyunda yana 80 tonna po‘lat ishlab chiqarishda

sarflandi. FIFO usulida bu chiqimning tannarxi 30 tonna po‘latni 5,5 million so‘mdan (165 million so‘m) va 50 tonnasini 6 million so‘mdan (300 million so‘m) hisoblab chiqildi. Natijada, jami tannarx 450 million so‘m bo‘ldi. Ushbu chiqimdan so‘ng zaxirada 50 tonna po‘lat qoldi va uning qiymati 300 million so‘mni tashkil etdi.

FIFO usuli bo‘yicha hisoblash natijasida, AMZ o‘zining po‘lat zaxiralarini birinchi kirganini birinchi sarflab, ishlab chiqarish jarayonida sifat va samaradorlikni ta’minlayapti. Ushbu usul moliyaviy hisobotlarda tannarxni aniq aks ettirishga yordam beradi va zaxiraning oxirgi qiymati doimiy yangilanib boradi. Shu bilan birga, FIFO usulining xususiyati sifatida past narxdagi zaxira birinchi sarflanib, foyda darajasi ko‘tariladi, bu esa soliqqa tortiladigan foydani oshirishi mumkin. Biroq, zamonaviy hisob tizimi va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan integratsiya hisobga olinib, bu usul AMZ uchun moliyaviy va ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Andijon Mexanika Zavodida qo‘llanilayotgan FIFO usuli nafaqat moliyaviy hisobotlarda aniqlik va shaffoflikni ta’minlaydi, balki ishlab chiqarish samaradorligi, xizmat sifati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Quyida mazkur yondashuvning korxona faoliyatidagi asosiy strategik jihatlari keltiriladi: Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, FIFO usuli tovar-moddiy zaxiralarning o‘z vaqtida aylanishini kafolatlab, ularning ishlab chiqarish jarayonida yaroqlilik muddati o‘tmasdan ishlatilishini ta’minlaydi. Bu esa, ayniqsa, ehtiyot qismlar va temir yo‘l vagonlarining komponentlarini ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Zaxiralar eskirib qolmasligi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot sifati yuqori bo‘ladi, ishlab chiqarishdagi nosozliklar kamayadi, yo‘qotishlar oldi olinadi. Xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishFIFO usulining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga to‘liq mos kelishi, Andijon Mexanika Zavodi mahsulotlarining MDH davlatlari va boshqa xorijiy bozorlarida tan olinishiga zamin yaratadi. Natijada, zavod o‘z mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi va xorijiy investorlar ishonchini qozonadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yilgi tahrir. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan e’lon qilingan rasmiy qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil.
2. “Andijon mexanika zavodi” AJ yillik balans hisoboti.
3. Tovar moddiy zahiralar shartnomasi.